



UO'K:1:316(09) (575.1)

Otabek ORTIQOV,

Qo'qon DPI dotsenti v.b, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori taqrizi asosida

E- Mail: ortiqovotabekjon1976@gmail.com

O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali o'qituvchisi (PhD) Shamsiddinov. B.

SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL HERITAGE AS AN OBJECT OF RESEARCH

Annotation

The article discusses the increased interest, the study of a scientific and philosophical point of view and the social and cultural life of the scientific and philosophical heritage of the Central Asian philosophers. Also, a special attention is paid to the legacy of thinkers Farabi and Ibn Sin.

Key words: scientific and philosophical heritage, philosophers of Central Asia, Farabi, Ibn Sina, natural science, ontology, gnoseology, empirical.

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЕ НАСЛЕДИЕ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается повышение интереса изучения с научно-философского точки зрения и место в социально-культурной жизни научно-философского наследия мыслителей Центральной Азии. Также, уделено особое внимание на наследие мыслителей Фараби и Ибн Сина.

Ключевые слова: научно-философское наследие, мыслители Центральной Азии, Фараби, Ибн Сина, естественно-научный, онтология, гносеология, эмпирический, вужуди вожиб, вужуди мумкин.

ILMIY-FALSAFIY MEROS TADQIQOT OB'EKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-falsafiy merosini zamon talablari nuqtai nazaridan o'rganish, unga bo'lgan qiziqishning ortib borishi, ijtimoiy-madaniy xayotdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Jumladan maqolada Farobiy, Ibn Sino kabi allomalarimiz merosiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqolada faylasuflarning bildirgan fikrlari, ularning ma'naviy –axloqiy va gumanistik merosga munosabatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-falsafiy meros, Markaziy Osiyo mutafakkirlari, Farobiy, Ibn Sino, gnoseologiya, tabiiy-ilmiy, ontologiya, gumanistik meros, vujudi vojib, vujudi mumkin, empirik.

Kirish. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlari o'zbekistonlik faylasuflar I.M.Mo'minov, M.M.Xayrullaev, B.Iskandarov, O.Fayzullaev, H.Aliqulov, R.Nosirov, A.Sharipov, M.K.Oripov, Y.Jumaboev, G.P.Matvievskaia, H.F.Vohidov, S.Yo'ldoshev, S.Murtazaev, M.Sultonov tomonidan izchil o'rganilgan. Sho'rolar saltanati va markscha-lenincha dogmatik falsafaning mafkuraviy tazyiqiga qaramay, mazkur tadqiqotchilar Markaziy Osiyo mutafakkirlari qoldirgan ilmiy, falsafiy va ma'naviy merosni ob'ektiv yoritishga intildilar. Masalan, akademik I.M.Mo'minov Markaziy Osiyoda falsafiy, tabiiy va texnikaviy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishini dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, tabiiy-ilmiy fikrlarning o'zaro ta'siri, tabiiy-ilmiy qarashlarning mustaqil rivojlanishi, tabiiy-ilmiy bilimlarning keng ommalashmay qolganida ko'radi. Shu bilan birga u ilmiy-falsafiy va tabiiy bilimlar rivojlanish bosqichlarini davrlashtirishni ham boshlab beradi. Uning yondashuviga muvofiq ilmiy-falsafiy qarashlarning tarixi umumiy ilm-fan tarixining tarkibiy qismi, shuning uchun u Markaziy Osiyodagi ilm-fan tarixini IX asr boshidan boshlashni taklif etadi. Bizning fikrimizcha, I.M.Mo'minov hozir tirik bo'lganida mazkur fikrga yangicha yondashardi. Lekin I.M.Mo'minov boshlab bergan davrlashtirish hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixiy manbalar ko'rsatadiki, IX-XII asrlarda O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, chet ellar bilan savdo-sotiq rivojlana boshlagan. "Mamlakatda sug'oriladigan dehqon xo'jaligi, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etish protsessida empirik bilimlarni rivojlantirishga ehtiyoj tug'ildi va shunga

binoan O'rta Osiyoning ilg'or kishilari bilimning matematika, astronomiya, geografiya, meditsina kabi tarmoqlarini chuqurlashtira va kengaytira boshladilar". Aynan shu davrda O'rta Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar darajasiga ko'tarilib, keyinchalik mamlakatimizda ilm-fanning rivojlanishini bilan bog'liq Uyg'onish davrini belgilab berdi. Mazkur rivojlanishning o'ziga xos xususiyati M.M.Xayrullaev qayd etganidek, "Koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy masalalarga qiziqish; insonni koinotni, borliqni yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug'lash, unga ishonch bildirish, targ'ib-tashviq etish, ularni yaratguchining eng ulug' va yuksak ijodi deb baholash, ma'rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish...", kabilardadir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish oshganini, ilmiy-falsafiy mushohada va tarixiy bilimga ega har bir tadqiqotchi, qalam ahli, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodini tahlil qilishga intilayotganini kuzatamiz. Ammo ular ichida falsafa tarixi bilan bevosita shug'ullanib kelgan mutaxassislarining ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, falsafiy-tarixiy merosning ijtimoiy-madaniy hayot va taraqqiyotdagi o'rni aynan mazkur tadqiqotchilar tomonidan chuqur, ob'ektiv yoritilmoqda. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlarini o'rganish maxsus bilimni, tayyorgarlikni taqozo etadi. Uchinchidan, mustaqillik

yillarida falsafa tarixiga, buyuk ajdodlarimizning ontologik va gnoseologik merosiga yangicha, milliy mafkura va umumfalsafiy metodologiya nuqtai nazaridan yondashish shakllandi. Ushbu o'zgarishlar tarix falsafasi bo'yicha mutaxassis bo'lmagan, ammo muammoga oid e'tiborli izlanishlar olib borayotgan qalam ahli – shoirlar, adabiyotshunolar, pedagoglar, tarixchilar, sotsiologlarning xizmatlarini inkor qilmaydi [10].

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlarini o'rganishga oid asarlar ko'p bo'lmasa-da, ular M.M.Xayrullaev, B.Iskandarov, O.Fayzullaev, M.N.Boltaev, R.N.Nosirov, Y.Jumaboev, K.Shodmanov, N.Turdiyboevlarning kitoblari, G.A.Nosirxo'jaeva, D.Fayzixo'jaeva, X.V.Muksimova, F.N.Jo'raqulovning nomzodlik dissertatsiyalarida maxsus tadqiq etilgan.

M.M.Xayrullaev Markaziy Osiyoda IX-XIII asrlardagi Uyg'onish davri madaniyati va ilmiga ta'sir etgan al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino, al-Beruniy, Yassaviy, Kubro, Ismoil Jurjoni, Marg'inoniy, M.Qoshg'ariy, Yusuf Hamadoniy, G'ijduvoniy kabi allomalarning hayoti va ijodini, ular qoldirgan ilmiy merosning ahamiyatini ochib beradi [2]. "Forobiy falsafasiga ko'ra, - deb yozadi M.M.Xayrullaev, - olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud – vujudi vojib, ya'ni azaliy vujud – birinchi sabab hamda vujudi mumkin – yaratilgan, kelib chiqqan vujudga natijalaridan iboratdir. Alloh – azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar – vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog'onama-pog'ona kelib chiqadi, buning so'nggi pog'onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo'lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo'yicha kechadigan tadrijiy jarayondir. Forobiy "Masalalar mohiyati", "O'zgaruvchan narsalar haqida" risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmining Sharqdagi ko'rinishi vujudiyun ta'limotini yangi g'oyalalar bilan boyitdi"[3].

Forobiyning vujudiyun ta'limotiga oid yangi g'oyalari uning to'rt unsur – tuproq, suv, havo va olov borliqning asosidir, degan qarashida mujassamdir. Borliq ushbu to'rt unsurlarning birikuvidan tashkil topgan, moddiy borliqdagi farqlar esa unsurlarning turlicha ekanligidandir. Faylasuf borliqni oltita sabab-oqibat orqali talqin qiladi: Alloh (as – sabab al – avval), osmon jismlari (as – sabab as – soniy), aql (al – aql – al – faol), jon (an – nafs), shakl (as – surat), materiya (al – modda). Ulardan Alloh – vujudi vojib zaruriy mavjudlikdir, qolganlari esa vujudi mumkindir [4].

Mazkur fikr sho'rolar davridagi qarashlardan keskin farq qiladi. U paytda "Forobiyning progressiv qarashlari islomga zid deb hisoblendi", "Forobiy xudoni olamning yaratuvchisi deb bilish bilan idealistik filosofiya doirasidan tashqariga chiqqan olmadi", [5] degan markscha-lenincha falsafa, ateizm talabi faylasuf merosini ob'ektiv baholashga imkon bermagan edi.

"Forobiy uchun dunyo g'uncha bo'lib, asta-sekin o'zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko'proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini, - deb yozadi M.M.Xayrullaev, - tabiiy-ilmiy g'oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Abu Ali ibn Sino va undan keyingi mutafakkirlar o'zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimi asosida ish olib bordilar"[6].

M.M.Xayrullaev Forobiyning gnoseologik qarashlarini chuqur tahlil qiladi, undagi Aristotel ta'sirida yuzaga kelgan yondashuvlarning mohiyatini, yangicha talqin etilganini, mazkur meros Markaziy Osiyo falsafa tarixida, tafakkurida eng muhim voqelik bo'lganini ochib beradi. Forobiy asarlarida ilm, bilish, aql quvvatlari, his-tuyg'ularning aqlu idrokka ta'siri masalalari chuqur yoritilgan. Uning fikricha, "insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi", tabiatni bilish cheksizdir, bilmaslikdan bilishga boriladi, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (al – oraz) dan mohiyat (javhar) ga qarab borishi orqali ilm, bilish ortib boradi, ilm egallash "tashqi quvvatlar" ta'sirida va "ichki quvvatlar" (esda saqlash, xayol, xotira, tasavvur, his-tuyg'u, fikrlash) orqali hosil qilinadi[7].

Forobiyning ilm egallashda aqlu idrokka tayanish, ob'ektiv borliqni o'rganishda ratsional fikrlashdan kelib chiqish borasidagi qarashlari falsafada, gnoseologik izlanishlarda hamon muhim tadqiqot usullari bo'lib qolmoqda[8].

B.Iskandarov Markaziy Osiyolik mutafakkir va donishmandlarning ilmiy-falsafiy merosidagi tabiiy-ilmiy qarashlarni[9], O.Fayzullaev va P.Q.Habibullaev buyuk ajdodlarimizning zamonaviy fizika, ximiya, algebra, kibernetika, matematika fanlari rivojiga ta'sirini[10], Y.Jumaboev tabiiy-ilmiy merosdagi Sharq Uyg'onish davriga xos jihatlari, taraqqiyot yo'llarini[11], R.Nosirov esa Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy va tabiatshunoslikka oid qarashlarini tadqiq qiladilar[12]. Masalan, falsafa fanlari doktori, professor R.Nosirov Abu Ali ibn Sinoning ontologik merosini o'rganib yozadi: "Ibn Sinoga ko'ra, borliq birinchi sabab, Allohni ifodalaydigan "vujudi vojib" va u tufayli paydo bo'lgan "vujudi mumkin" dan iboratdir"[13]. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda Forobiyning ta'siri mavjud.

R.Nosirov "vujudi vojib" va "vujudi mumkin" ning zamon va makondagi harakatlari, Ibn Sino falsafasida ushbu harakatlarning ko'rinishlari, ularning Beruniy talqinidan farqlari, borliqning shakllanishidagi to'rt (moddiy, faol, shakliy va cho'ziluvchi) sabablar, sabab va oqibat, harakat va vaqt, makon, ashyoviy olamning konkret holatlari, empirik va yarim empirik tasavvurlar "haqida" to'xtalib, ularning nazariy falsafaning rivojidagi ahamiyatini ochib beradi. U yozadi: "Agar vaqt Beruniyda mutlaq, abadiy va nisbiy, chegaralanganligi bilan belgilanib, har bir ashyo-narsa va hodisaning umri nisbiy, chegaralangan vaqt bilan o'lchanib, abadiylik esa yaratganning umriga qiyoslansa, biron-bir narsa esa abadiylikka da'vo qila olmasa, Ibn Sinoda bu muammo boshqacha tus oladi. "Vujuda vojib" bilan "vujudi mumkin" bir-biridan vaqt nuqtai nazaridan emas, balki o'zining nafisligi, saxovatligi va karami bilan farq qiladi"[14].

T.Karim esa al-Xorazmiy, Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Ulug'bek kabi ajdodlarimizning ilmiy merosi jahon ilm-faniga ta'sir etganini, u G'arb olimlari G.Galiley, I.Nyuton va A.Eynshteynning kashfiyotlaridan kam emasligini ochib beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ontologik va gnoseologik qarashlarining shakllanishi hamda taraqqiyotida islom dini va tafakkuri qaror topganidan keyingi davr muhim bosqich bo'lganini mustaqillik yillarida o'tkazilgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Shuningdek, mutafakkirlar ijtimoiy-falsafiy merosini yangi davr nuqtai-nazaridan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Xayrullaev M.M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. -Toshkent.: Fan, -1994 B.41.
2. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Buyuk siymolar, allomalar. -Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, -B.36-37.
3. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Buyuk siymolar, allomalar. -Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995. –B.37.

4. O'zbekistonda progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir materiallar. -Toshkent.: O'zSR FA nashriyoti. 1959, -B.13.
5. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Ma'naviyat yulduzlari. -Toshkent.: Sharq, 2000. - B 61-62.
6. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy//Buyuk siymolar, allomalar. -Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti., 1995. - B 37.
7. Rassel B. Chelovecheskoe poznanie. -M.: Inostr.lit-ra, 1957; Gote R. Logiko-gnoseologicheskie issledovaniya. -SPb.: Rost, 2009.S.52.
8. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixidan lavhalar. -Toshkent.: Fan, 1994.B.32.
9. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya/Pod.red. P.K.Xabibullaeva i A.F.Fayzullaeva. -Toshkent.: Fan, 2000.B.14.
10. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -Toshkent.: O'qituvchi, 1997.B.54.
11. Nosirov R. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. -Toshkent.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti., 2009.B.19.
12. Nosirov R. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. -Toshkent.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti., 2009. - B 6.
13. Nosirov R. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari. -Toshkent.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti., 2009. -B.7.
14. Karim T. Sharq al-Tayr yulduzlari. -Toshkent.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005. – V. 6-24.